

Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**MAHMUD ZAMAKHSHARI'S LITERARY HERITAGE****Sanobar Abduljalilovna Muxamedxodjayeva***Doctor of Philosophy (PhD) in Philology**Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature**E-mail: sanobarnote13@gmail.com**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Zamakhshari, Maqomat, Atvoqu-z-zahab, Navobig‘u-l-kalim, Nasoihu-s sig‘or, Nasoihu-l-kibor, ethics, wisdom, Abu Muzar, Sibawayh, Mecca.

Received: 21.09.25**Accepted:** 22.09.25**Published:** 23.09.25

Abstract: This article provides information about the life, scholarly journeys, and teachers of Mahmud ibn Umar ibn Muhammad Ahmad Khwarazmi Zamakhshari, who is also known by the honorary title Khorazm Fakhr and the name Jorulloh (meaning "Neighbor of God"). Additionally, it discusses his treatise Navobig‘u-l-kalim, which contains advice, admonitions, and wisdom, its significance, themes, the authorship of the book, the fact that the work has been titled with different names, reasons for this, and the results of research into which title is actually correct. Furthermore, the article presents the debates and discussions of researchers about two other ethical works by the scholar, Nasoihu-s sig‘or and Nasoihu-l-kibor, as well as conclusions regarding their connection with Navobig‘u-l-kalim.

MAHMUD ZAMAXSHARIY ADABIY MEROSI**Sanobar Abduljalilovna Muxamedxodjayeva***Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti**E-mail: sanobarnote13@gmail.com**Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: Zamaxshariy, "Maqomat", "Atvoqu-z-zahab", "Navobig‘u-l-kalim", "Nasoihu-s sig‘or", "Nasoihu-l-kibor", axloqshunoslik, hikmatlar, Abu Muzar, Sibavayh, Makka

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm faxri, Jorulloh (Allohning qo'shnisi) nomi bilan mashhur bo'lgan Mahmud ibn Umar ibn Muhammad Ahmad Xorazmiy Zamaxshariyning hayoti, ilm yo'lidagi safarlari va ta'lim olgan ustozlari haqida

ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, uning pand-u nasihat va hikmatlarni o'z ichiga olgan "Navobig'u-l-kalim" risolasi, uning ahamiyati, asar mavzulari, kitobning muallifga tegishli ekani, asar turlicha nomlar bilan nomlangani, buning sabablari va aslida qaysi nom to'g'ri ekanligi borasida olib borilgan izlanishlar natijasi ma'lum qilingan. Bundan tashqari, maqolada allomaning axloqshunoslikka oid yana ikki asari ya'ni "Nasoihu-s sig'or" va "Nasoihu-l-kibor" haqidagi tadqiqotchilarning bahs va munozaralari, bu ikki asarning "Navobig'u-l-kalim" bilan qanday bog'liqlik jihati borligi haqidagi xulosalar bayon etilgan.

ЛИТЕРАТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ МАХМУДА ЗАМАХШАРИ

Санобар Абдулжалиеловна Мухамедходжаева

доктор философии (PhD) по филологии

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

E-mail: sanobarnote13@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Замахшари, Maqomat, Atvoqu-z-zahab, Navobig'u-l-kalim, Nasoihu-s sig'or, Nasoihu-l-kibor, этика, мудрость, Абу Музар, Сибавайх, Мекка.

Аннотация: В данной статье представлена информация о жизни, научных путешествиях и учителях Махмуда ибн Умара ибн Мухаммада Ахмада Хорезмий Замахшари, известного также под почетным титулом Хорезм Фахр и именем Джоруллох (что означает «Сосед Бога»). Кроме того, рассматривается его трактат Navobig'u-l-kalim, содержащий наставления, поучения и мудрость, его значение, темы, авторство книги, тот факт, что произведение называлось разными именами, причины этого и результаты исследований, касающихся того, какое название является правильным. В статье также изложены споры и обсуждения исследователей о двух других этических трудах ученого — Nasoihu-s sig'or и Nasoihu-l-kibor, а также выводы о связи этих произведений с Navobig'u-l-kalim.

O'rta Osiyo qadimdan ko'plab allomalar va buyuk mutafakkirlar zamini bo'lib, bu yerda jahonga yuz tutgan olimlar yetishib chiqqan. Ana shunday mutafakkirlardan Mahmud Zamaxshariy ham ijodiy faoliyati va o'lmas asarlari bilan dunyo xalqlariga Mashriqzamin yerlarini tanitdi. Xususan, lug'at va arab grammatikasiga oid asarlari diqqatga sazovordir. Bu ilmlarni

dastlab u Xorazmda ustozlari Abu Muzar Mahmud ibn Jarir Zobiy Asbahoniy Xorazmiy Mo'taziliydan (1113-yil Marvda vafot etgan) olgan. Zamaxshariy ustozini yo'lidan borib, undan ko'p ta'sirlangan, shu sababli o'zi ham mo'tazila e'tiqodida bo'lgan. Maxmud Zamaxshariy o'z ustozini juda sevgan va hurmat qilgan, unga vafodor bo'lgan hamda fazilatlarini e'tirof etgan. Zamaxshariy ustozlari Abu Muzarni xotirlab, unga bag'ishlangan maqtov va olqishlarni o'zining qasidalarida keltiradi. Olim ustoziga bag'ishlangan oltmish bir baytdan iborat qasidani devoniga kiritgan. Mazkur qasida quyidagi xotima bilan tugaydi:

“U haqiqatan o'z asrining yagonasi,

Ko'zlar undan keyin unga o'xshashni ko'rmadi...” [1, b. 1].

Shuningdek, alloma Xorazmdan tashqari Mashriqdagi bir qancha yurtlarda bo'lib, diniy ilmlarni puxta egalladi. Jumladan, Bog'dodga 500 hijriy (1107mil.) yildan oldin safar qilgan va bir jamo'adan hadis ilmini o'rgangan. 515-yil (1122 mil.) atrofida, yoshi 50 ga yaqinlashib qolganda Abu Bakr Yobiriy Andalusiydan “Kitobu-s-Sibavayh”ni o'qish uchun Makkaga safar qiladi. U yerda ikki yil qolib Sibavayhning kitobini to'liq va mukammal o'rganadi [2, b. 76-77]. Zamaxshariy bu kitobdan juda ko'p foydali ilmlarni olgan. Shundan so'ng alloma o'z yurtiga, ya'ni Xorazmga qaytib keldi. Ammo uni Makkaning sog'inchi o'rta 526 yilda (1132mil.) yana qaytib borishlik nasib qildi. U yerda 5 yil yashadi. Makkaga qo'shni bo'lib yashagani uchun ham “Jorulloh” (Allohning qo'shnisi) deya atalgan. Zamaxshariy bunday nomlanishdan faxrlanib, ba'zi kitoblarida o'zini shunday nomlagan ham. Masalan, “Robi'u-l-abror” hamda “Devoni Zamaxshariy” da o'ziga “Jorulloh” nisbatini berganini uchratish mumkin. 531-yilda yurtiga qaytar ekan, yo'lda Hijoz va Madinani ziyorat qilib, Bog'dodda bir necha oy qoladi hamda barcha kitob va daftarlarini Abu Hanifaning maqbarasida qoldiradi. Bu haqida Hofiz Salafiya yozgan maktubida quyidagicha aytadi: “Kitoblarimning hammasini Abu Hanifaning mashhadiga olib kelib qo'ydim. Qo'limda hech narsa qolmadi. Birgina Allohning kitobini saqlovchi o'laroq qo'limda qoldirdim” [2, b. 285]. Zamaxshariy Xorazmga qaytgach vafot etgunga qadar u erda qoladi hamda 538 (1144) yilning arafa kechasida Jurjoniya (Urganch) vafot etadi.

Allomaning bizga qoldirib ketgan ilmiy merosi olimlarimizning oxirgi tadqiqotlari natijalariga ko'ra 90 ga yetgan [3, b. 64]. Tafsir, lug'at, aruz ilmi bo'yicha shuningdek, masal (asl ma'nosi maqol, ammo bu o'rinda hikmatli so'z, pand-nasihati) va she'riy asarlari bor bo'lib, katta hajmda devoni Zamaxshariyini yozgan. Adabiyotshunoslikka oid asarlarida insho', saj', nasr, tiboq kabi uslublardan mohirona foydalangan. Bunday asarlar sirasiga “Robi'u-l-abror”, “Muqaddimat”, “Asosu-l-balog'a”, “Navobig'u-l-kalim” asarlari kiradi. Bu asarlarning har biri o'z adabiy va tarixiy qiymatga ega. Ishonchli manbalarga ko'ra Zamaxshariy uylanmagan, bo'ydoq o'tgan. Bir qancha baytlarida uylanishdan bo'ydoqlik afzalligiga ishoralar qilgan. Masalan, tadqiqotimiz asosi bo'lgan “Navobig'u-l-kalim”da quyidagi hikmat keltiriladi:

Kim ko‘proq mashaqqatda ekanini bilmayman?, to‘lqinlar ichida suzayotgan odammi yoki turmush asnosida yashayotgan odam. Biroq ba’zi tadqiqotchilar jumladan, Zamaxshariyning “Ru’usu-l-masoil” asarini tadqiq qilgan Abdulloh Nazir asar muqaddimasida shuningdek, Abul Amir Muhanna “Robi’u-l-abror”ning muqaddimasida Zamaxshariy oila qurgani, ammo farzandi bo‘lmaganini aytadi va buning isboti o‘laroq turmush qurganiga nadomat qilgan ma’noni ifodalovchi ikki baytni keltirgan. Ammo tadqiqotchilar bu ikki bayt Zamaxshariyning devonidan emasligi, balki devonga qo‘shilib qolganini ta’kidlaganlar [4, b. 294; 5, 294]. Bundan esa Zamaxshariy uylanmagan degan xulosa kelib chiqadi.

Endi tadqiqotimizning asosiy ob’ekti bo‘lgan “Navobig‘ul-l-kalim” asari haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, asar hikmat va nasihatlar majmuasidan iborat bo‘lib, Zamaxshariyning o‘tkir iste’dodi, fikrining terangligi, bilimining chuqurligini namoyon etadi. Alloma asarda hayotning mazmun-mohiyatini ochib berishga, inson ma’naviyatini yuksaltirishga, jamiyatda yuksak fazilatli kishilarni ko‘paytirishga intilgan. O‘zining hikmatlari, fasohatli iboralari bilan insonning qalbiga chuqur kirib borib, inson qalbidagi his-tuyg‘ularni ma’naviyatning eng cho‘qqisiga olib chiqadi, vijdonini uyg‘otadi. Dinni mahkam tutishga, fazilatli, adolatli, shijoatli, pokdomon bo‘lishga, boshqalarni hurmat qilish va yaxshi ko‘rishga chaqirgan. Shuningdek, razolat, zalolat, johillik, dangasalik, hasad, zulm, manmanlik, ochko‘zlik kabi insoniyat va jamiyatni qoloqlikka olib boradigan har bir yomon ishlardan qaytaradi. Demak, ko‘rib turganimizdek, asar har qaysi davr uchun zaruriy ko‘rsatma, pand-nasihatlar va tarbiyaviy qo‘llanma sifatida ahamiyatga ega. Zero, yuqorida sanab o‘tilgan fazilatlarga targ‘ib qilmasdan, yomonliklardan qaytarmasdan turib barkamol va ma’rifatli avlodni tasavvur qilish mushkul. Shunday ekan, ushbu va’z-nasihatlarini o‘zida ja’mlagan, qisqa iboralar bilan keng ma’nolarni o‘z ichiga qamrab olgan asarni har taraflama tadqiq qilish, vatandoshimizning ilmiy merosini kelajak avlodga yetkaza olish muhim vazifalardan bo‘lib turibdi.

Alloma Jorulloh Zamaxshariyning ushbu risolasi axloqshunoslikka oid bo‘libgina qolmay, balki tarixiy hamda diniy asar sifatida ham baholanadi. Chunki unda V asrning ikkinchi yarmi va VI asrning birinchi yarimida sodir bo‘lgan siyosiy, ijtimoiy va diniy voqealar va olimning unga bo‘lgan tanqidiy munosabati bayon qilingan bo‘lib, bu ma’lumotlar orqali o‘sha davrning afzalliklari va kamchiliklarini hamda davr muhitini anglab olish mumkin.

Asarning Zamaxshariyga mansubligi tarix, adabiyot, tabaqot kitoblarida va asar sharhlarida hamda muallifning o‘zining kitoblarida aytib o‘tilgan. Jumladan, “Kashshof” nomli tafsir kitobining ikki joyida: “Navobig‘u-l-kalim”da shunday deb”, ishora qilingan, “Robi’u-l-abror”ning 14 ta o‘rnida ham asar nomi keltirilib, asardan bir necha hikmatlar aytib o‘tilgan, ammo aynan shu kitobning besh joyida “Navobig‘ul-l kalim”da deyilganu bu kitobdan bo‘lmagan hikmatlar keltirilgan. Demak, bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, alloma “Navobig‘u-l-

kalim” deganda ba’zi o’rinlarda asarni nazarda tutgan bo’lsa, ba’zi o’rinlarda bu nomning ma’nosi ya’ni “fasohatli so’zlarda” degan iborani o’zini nazarda tutgan. Xuddi shunga o’xshash mavhumlikni “Maqomatu-z-Zamaxshariy” hoshiyasida ham uchratish mumkin. Bu kitobda 8 ta joyda asar nomi aytilgan bo’lib, uch o’rinda asar nomi, so’ngra asardan bir necha hikmatlar keltirilgan ammo qolgan joyida “Navobig’u-l-kalim”da deyilgan bo’lsada bu kitobdan bo’lmagan hikmatlarni uchratish mumkin. “Asosu-l-balog’a”ning ikki joyida esa alloma bu ilmiy merosni o’ziga nisbat bergan va sanab o’tilgan ushbu kitoblarda “Navobig’u-l-kalim”dan iqtibos keltirgan. Demak, ushbu hikmatlarga boy risola aynan Mahmud Zamaxshariyga tegishli ekanligi ma’lum bo’ladi.

Shuningdek, manbalarda asarning nomi bir necha xil ko’rinishda nomlanganini ko’rish mumkin. Abdulqodir Bag’dodiy “Xizonatu-l-odob”, Hojjiy Xalifa “Kashfu-z-zunun” kitobida “Navobig’u-l-kalim” deb zikr qilib o’tgan bo’lsa, Suyutiy, Yoqut Hamaviy, Toshko’prizoda, Sofadiy va Maqorriylar “Alkalimu-n-navobig’” deb keltirgan (ya’ni so’zlar o’rni almashgan). Bunga yana Nosir Zaydiy, Domadzoda kabi bir qancha asarning shorihlarining “Sharhu-l-kalimu-n-navobig’” deb nomlashlari ham dalil bo’ladi. Taftazoniy va Xivaqiylar asar sharhida “Annabobig’”ning sharhi deyishlik bilan kifoyalanganlar. Ibn Hanbaliy “Almiatu-n-navobig’” deb aytgan. Izlanishlar natijasidan ma’lum bo’ladiki, birinchi va ikkinchisi mashhur nomlari bo’lib, uchinchi ikkisidan birining qisqartirilgan shakli hisoblanadi. Aynan shu asarning muqaddimasida ham muallifning o’zi asar nomini “Alkalimu-n-navobig’” deb birinchi nom bilan atagan va quyidagi iboralarni keltiradi:

النوابغ الكلم هذه الهام، السوابغ النعم من منحتني مما ان اللهم

(Ey Allohim, menga bergan mukammal ne’matlaringdandir, fasohatli so’zlarga ilhom qilganing.) Demak, asarning haqiqiy nomi “Alkalimu-n-navobig’” ekanligi ma’lum bo’ladi.

Shunday bo’lsa-da asarning nomi ko’pgina qo’lyozma va toshbosmalar ustida “Navobig’u-l-kalim” (so’zlar fasohati) deb yozib qo’yilgan. Buning sababi allomaning o’zi boshqa kitoblarda shu nomni ham tilga olgan. Jumladan, “Robi’u-l-abror”ning “Osmon va yulduzlar” hamda “Arsh va kursi zikri” bobida quyidagicha keltiradi: “Navobig’u-l-kalim” da aytilgandek:

”الجزء خلف الشعرى احسن فما. الجزء بحسن الحسنة شيع“

Shuningdek, “Asosu-l-balog’a”ning “jadb” (lug’atda “qurg’oqchilik” ma’nosida) bobida “Navobig’u-l-kalim”da aytilgandek: “اجدب رحله كان آدب كان من” (kimki ziyofatni ko’paytirsang, hech narsasiz qoladi) aynan shu kitobning “roqn” (lug’atda “chiroyli yozish” ma’nosida) faslida:

”ترقيين و طرس لا. تلقين و درس العلم“ (Ilm bu-o’rganish va fahmlashlikdir. Varoq va chiroyli yozishlik emas.) deb aytadi. Yuqoridagi ma’lumotlardan xulosa qilib aytadigan bo’lsak, birinchi va ikkinchi nomlar asarning haqiqiy nomi hisoblanadi [6, b. 836].

Ammo to‘rtinchi nomni mulohaza qilib ko‘rilsa, mazmunidan 100 hikmat ma‘nosi kelib chiqadi. Bu esa asardagi hikmatlar soniga mos kelmaganini ko‘ramiz. Sababi, “Navobig‘u-l-kalim”da kelgan hikmatlar soni 291 tadan iborat. Shuningdek, birorta qo‘lyozma yoki toshbosma manbalarning unvonida ham bunday nomlanishiga guvoh bo‘lmadik.

Bu yerda Zamaxshariy ilmiy merosini o‘rgangan tadqiqotchilar o‘rtasida bahs munozarali yana bir masala bor. Bu masala shundan iboratki, Jorulloh Xorazimiyning ahloqshunoslikka doir bir nechta asarlari bor bo‘lib, shulardan uchtasi chop etilgan. Bular “Maqomat”, “Atvoqu-z-zahab” va “Navobig‘u-l-kalim”dir. Bundan tashqari, alloma asarlarining ro‘yxati keltirilgan ba‘zi tarix va taboqot kitoblarida yana ikki “Nasoihu-s-sig‘or” va “Nasoihu-l-kibor” asarlari sanab o‘tilgan. Bu ikki asar alohida kitoblarmi yoki yuqoridagi nasihatomoz asarlarning boshqa nomlarimi? Ayrim olimlar bu ikki asar alohida boshqa-boshqa kitob desalar, boshqalari yuqorida sanab o‘tilgan kitoblarning turlicha nomlari deb hisoblaganlar. Xususan, “Nasoihu-s-sig‘or” bu “Navobig‘u-l-kalim”ning ikkinchi nomi deb hisoblaydilar. Masalan: Ibn Xollikon va ibn Ammodlar allomaning ahloqshunoslikka oid kitoblari ro‘yxatiga “Nasoihu-s-sig‘or” va “Nasoihu-l-kibor”ni kiritib, yuqoridagi uch asarni kiritmagan [4, b. 16]. Demak, “Maqomat”, “Atvoqu-z-zahab” va “Navobig‘u-l-kalim”lar alohida asar bo‘lmasdan shu ikki nomning biri ostida hisoblanadi. Yoqut Hamaviy, Toshko‘prizoda, Hojji Xalifa, Ismoil Bog‘dodiy, Abdu-l-Fattoh Abu G‘uddalar ro‘yxatlar qatoriga beshta nomni ham kiritgan. Bunda “Nasoihu-s-sig‘or” va “Nasoihu-l-kibor” alohida asar ekaniga ishora bor. Imom Suyutiy va Abu-l Abbos Muqriylar esa “Nasoihu-s-sig‘or” va “Nasoihu-l-kibor”ni asarlar ro‘yxatiga kiritmagan. Dovudiy esa “Navobig‘u-l-kalim”ni ro‘yxatlar qatoridan tushirib qoldirgan. Chunki ba‘zi manbalarda “Navobig‘u-l-kalim” bilan “Nasoihu-s-sig‘or” yoki yana bir ko‘rinishi bo‘lgan “Nasoihu-s-sug‘or” (ko‘plik shakli) bitta risola ekanligi aytilgan. Xattoki qo‘lyozma asarlarda ham bunday chalkashlikni uchratish mumkin. Masalan, Britaniya muzeyida 3733-invertal raqami ostidagi “Navobig‘u-l-kalim” qo‘lyozmasi “Nasoihu-s-sig‘or” nomi bilan saqlangan. Biroq ushbu qo‘lyozmani tadqiq qilgan Bog‘dod universiteti doktori Bahija Husayniy bu nom xato ekanligi aslida “Atvoqu-z-zahab”ning yana bir nomi bo‘lib, unitilib ketganligini qayd etgan [6, b. 836]. (“Atvoqu-z-zahab” ham Zamaxshariyning ahloqshunoslikka oid asarlaridan ekanligi yuqorida o‘tdi). Shuningdek, Iroq muzeyidagi 563-invertal raqami ostidagi “Navobig‘u-l-kalim” qo‘lyozmasining birinchi sahifasiga “Navobig‘u-l-kalim fi adabiyoti va yusamma Nasoihu-s-sig‘or” ya‘ni, asar nomi (Navobig‘u-l-kalim), adabiyotshunoslikka doir ekani va “Nasoihu-s-sig‘or” (kichik nasihatlar) deb ham nomlanishi yozilgan. Misrning “Daru-l-kutub” fihrestida ham asar nomi “Navobig‘u-l-kalim” yoki “Nasoihu-s-sig‘or” deyilgan [6, b. 838]. Biz tadqiqotimizda istefoda etgan Misr kutubxonasida saqlanadigan 435-invertal raqamli qo‘lyozmaning birinchi sahifasida Ar-Riyoziy universiteti kutubxonasining qo‘lyozmalar fondi pechati bosilgan bo‘lib, katalogida asarning nomi

“Alkalimu-n-navobig‘ va-n-nas‘hu-s-savobig‘” (bunday nomlanishi boshqa qo‘lyozmalardan farq qiladi) deb yozilgan. Shuningdek, katalogda asarning boshqa nomlari ham aytib o‘tilgan. Ular quyidagilar: “Nasoihu-s-sig‘or”; “Navobig‘u-l-kalim va javomi‘u-l-hikam” . O‘zbek adabiyotshunoslarning asar va tadqiqotlarida ham bu holatlarni uchratish mumkin. Jumladan, “O‘zbekiston milliy ensiklapediyasida”, A.Rustamovning “Mahmud Zamaxshariy” nomli kitobida hamda bir qancha maqolalarda “Navobig‘u-l-kalim” alohida, “Nasoihu-l-sig‘or” alohida sanab o‘tilgan.

Aslini olganda esa “Nasoihu-l-sig‘or” yuqorida doktor Bahija Husayniy aytib o‘tganidek, Zamaxshariyning ahloqshunoslikka oid asarlaridan biri bo‘lgan “Atvoqu-z-zahab”ning ikkinchi nomidir. “Atvoqu-z-zahab” dastlab “Nasoihu-l-sig‘or” nomi bilan atalgan [7, b. 43]. “Nasoihu-l-kibor” esa Zamaxshariyning axloqshunoslikka oid “Maqomat” asarining boshqa nomi hisoblanadi. Bunday xulosaga kelishimizga bir qancha sabablar bor. Birinchidan, “Atvoqu-z-zahab”ning qo‘lyozma nusxalarida shumladan, Misr kutubxonasida saqlanayotgan 1275 raqam ostidagi qo‘lyozma nusxaning muqovasiga, hamda katalogiga “Nasoihu-l-sig‘or” li-z-Zamaxshariy deb yozilgan bo‘lsa-da asar “Atvoqu-z-zahab” ekanligi ma‘lum bo‘ldi. Shuningdek, Rog‘ib Posho kutubxonasidan 1057 raqam ostidagi qo‘lyozma nusxaning birinchi sahifasida Zamaxshariyning “Atvoqu-z-zahab” asari ekanligi hamda bu asar “Nasoihu-l-sig‘or” deb ham nomlanishi yozilgan. Ushbu qo‘lyozmaning 198 sahifasidan allomaning “Maqomat”i ko‘chirilgan bo‘lib, unga “Nasoihu-l-kibor” deb nom qo‘yilgan. Bundan tashqari, biz o‘rganayotgan asarning alloma Taftazoniy tomonidan yozilgan “Ni‘amu-s-savobig‘” nomli sharhini tahqiq qilgan olimlardan biri Hamza ibn Muhammad Vasim o‘z muqaddimasida ushbu masala bo‘yicha to‘xtalib quyidagi mulohazalarni keltiradi: “Zamaxshariy “Robi‘u-l-abror” asarining uch o‘rnida, “Kashshof” asarining bir joyida “Nasoihu-l-sig‘or”da shunday keltirilgan deya, “Atvoqu-z-zahab”dagi hikmatlarni keltirgan. Shuningdek, “Robi‘u-l-abror” asarining boshqa ikki o‘rnida “Nasoih”da deya (qisqa ko‘rinishi), bir hikmatni “Atvoqu-z-zahab”dan yana birini “Maqomat”dan iqtibos keltirgan. Shuningdek, alloma o‘zining “Muqaddimat” asariga yozgan sharhining bir necha joyida asar nomini “Nasoih” deb nomlagan.” [4, b. 16].

Bundan quyidagicha umumiy xulosalar kelib chiqadi:

- Alloma Jorulloh Zamaxshariy “Nasoih” deya mutlaq qisqa shaklda aytganda o‘zining ikki asarini ya’ni, “Atvoqu-z-zahab” hamda “Maqomat”ni nazarda tutgan bo‘ladi;
- “Nasoihu-l-sig‘or” deganda faqat “Atvoqu-z-zahab”ga ishora qilgan bo‘ladi;
- Bundan ma‘lum bo‘ladiki, “Nasoihu-l-kibor” deganda faqat “Maqomat” haqida gap yuritayotgan bo‘ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, “Nasoihu-l-sig‘or” va “Nasoihu-l-kibor”lar allomaning alohida asari emas. Shuningdek, “Nasoihu-l-sig‘or” biz o‘rganayotgan “Navobig‘u-l-kalim”

asarining ikkinchi nomi ham emas. Bundan yuqorida aytib o‘tilgan, Imom Suyutiy va Abu-l Abbos Muqriylarning “Nasoihu-s-sig‘or” va “Nasoihu-l-kibor”ni ahloqshunoslikka oid asarlar ro‘yxatiga kiritmagani to‘g‘ri ekanligi, Ibn Xollikon va ibn Ammodlar bu ikkisini kitoblar ro‘yxatiga kiritib, qolgan uch asarni kiritmagani to‘g‘riga yaqinroqligi ammo beshta nomni ham alohida asar sifatida sanab o‘tganlari xato ekanligi ma’lum bo‘ladi. Ko‘rib turganimizdek, Jorulloh Zamaxshariyning bizga qoldirib ketgan ma’naviy merosini chuqur tadqiq etishda qilinadigan ishlar bisyor bo‘lib, matnshunos va adabiyotshunoslarning oldida bir qancha vazifalar borligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Islamov.Z. Maxmud Zamaxshariy ilmiy maktabining shakllanishi. Moturidiy /2022/4/1.
 2. Abu-l-Abbos Muqriy. (1939). Azharu-r-riyod fi axbori-l-iyod.
 3. Muhamedxodjaeva.S. Alloma Mahmud Zamaxshariy va uning ijodiy faoliyati. /O‘zbekiston. Til va madaniyat/2025/2/64.
 4. 4,5. Hamza ibn Muhammad Vasim (2018). “Nia’mu-s-savobig‘” Istanbul. Daru-l-lubab. Omosiy. Rovzu-l-axyari-l-muntaxob min robi’i-l-abror. -B. 294
 6. H.Bahiyja. Majallatu-l-arab. (1970). Riyoz. J.9.-B.839.
 7. Sulaymonova.N. (2019) Mahmud Zamaxshariyning Toshkent fondlarida saqlanayotgan asarlarining manbashunoslik tahlili. –T.: ToshDShI.
- O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. (2010). Buyuk ajdodlarimiz. Toshkent.
- Aytbaev M. (2023) Mahmud Zamahshariy va uning ijtimoiy-axloqiy ta’limotining o‘ziga xos jihatlari. O‘zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar /25/53.
- Sulaymonova.X. “Rasailu-l-Xorazmiy” asarining qo‘lyozma nusxalari geografiyasi/ O‘zbekiston. Til va madaniyat/2025/2/52.
- Suyutiy. Bug‘yatu-l-vuot. J.2.-B.280.
- Toshko‘prizoda. Miftahu-s-saodat. Bayrut. 1985. J.2. -B.88.
- Yoqut Hamaviy. Irshodu-l-arib ila ma’rifati-l-adib. J.7. -B.150.
- Xoji Xolifa. Kashfu-z-zunun. 1978.